

IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Pozilov Sanjarbek Muxammadismoilovich

Bank-moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124274>

Annotatsiya. So‘nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali xususiy mulkchilikni kengaytirish, samarasiz ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarni tugatish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari hususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiyot, davlat ishtiroki.

PROSPECTS OF REDUCTION OF STATE PARTICIPATION IN THE ECONOMY AND DEVELOPMENT OF PRIVATE BUSINESS

Abstract. In recent years, systematic reforms have been implemented to reduce state participation in the economy, expand private ownership through the privatization of state assets, and liquidate inefficient and unpromising enterprises. This article talks about the prospects of reducing state participation in the economy and developing private entrepreneurship.

Key words: private property, private entrepreneurship, economy, state participation.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОКРАЩЕНИЯ УЧАСТИЯ ГОСУДАРСТВА В ЭКОНОМИКЕ И РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО БИЗНЕСА

Аннотация. В последние годы проводятся системные реформы по сокращению участия государства в экономике, расширению частной собственности за счет приватизации. **Ключевые слова:** государственных активов, ликвидации неэффективных и бесперспективных предприятий. В данной статье говорится о перспективах сокращения участия государства в экономике и развития частного предпринимательства.

частная собственность, частное предпринимательство, экономика, участие государства.

Zamonaviy bozor tizimini davlatning aralashuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Biroq, aralashuvning o‘z chegarasi bo‘lib, uning mazkur chegaradan oshib ketishi bozor jarayonlarining izdan chiqishiga ta‘sir etib, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Natijada iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, xo‘jalik yuritishni tashkil etish va boshqaruv jarayonlarida davlatning me‘yorida ortiq ishtirokini pasaytirish masalasi maydonga tushadi. Davlat aralashuvi miqyosini tartibga solish uchun muxim cheklovlar mavjud. Masalan, davlat tomonidan bozor mexanizmini izdan chiqaruvchi xar qanday xattixarakteratlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qisqartirish, eng avvalo, xususiy mulk xuquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda qulay investitsiyaviy muhit yaratish, xususiy mulk egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat aktivlarini shaffof holda xususiylashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori foydalanilmay turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan bo‘sh binolarni shaffof holda xususiylashtirish jarayonini tezlashtirishda muhim huquqiy hujjat bo‘ldi.

Ushbu hujjat bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining, vazirlik, idora hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining davlat aktivlarini boshqarish yo‘nalishidagi asosiy vazifalaridan biri etib, bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lmagan aktivlarni aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini muttasil amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish choralarini ko‘rish belgilandi.

Qarorga muvofiq, mahallalardagi hokim yordamchilari zimmasiga ham bu borada mas‘uliyatli vazifa yuklandi. Ular o‘z hududlarida bo‘sh turgan bino va er uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish uchun buyurtma berish imkoniyati yaratildi.

Mazkur hujjatda belgilanganidek, 2022 yil 1 apreldan boshlab, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchilari tomonidan o‘z hududlarida bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk ob‘ekti yoki yer uchastkalari hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk ob‘ekti aniqlanganda hokim yordamchilarining onlayn-buyurtmanomasiga asosan Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan tartibga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladi.

Yana bir muhim jihati, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlariga qarashli bo‘lgan, uch oydan ortiq foydalanilmasdan bo‘sh turgan ob‘ekt, Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq ularning roziligisiz ijaraga berish yoki sotish uchun savdoga chiqariladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bo‘sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan davlat aktivlari hamda yer uchastkalarini xususiylashtirishda qarorning ahamiyati juda katta.

Bu borada “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari” to‘g‘risida 2023-yil 23-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori tasdiqlangan bo‘lib, unda quyidagilar ko‘rsatilib o‘tilgan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat aktivlarini shaffof holda xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish maqsadida:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tomonidan Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda **60 ga yaqin vazirlik**, idora va **2 mingdan ortiq** davlat ishtirokidagi korxonalarining **12 mingdan ortiq** ulushlari va ko‘chmas mulk ob‘ektlari yalpi xatlovdan o‘tkazilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining, vazirlik, idora hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining davlat aktivlarini boshqarish yo‘nalishidagi asosiy vazifalaridan biri etib, bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lmagan aktivlarni aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini muttasil amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish choralarini ko‘rilmoqda.

Xususan, oxirgi uch yilda ustav fondida davlat ulushi mavjud 300 ga yaqin xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalar (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) va 1 600 dan ortiq ko'chmas mulk ob'ektlari

kunda xususiylashtirildi, 650 dan ortiq korxonalar tugatildi va 160 tasi qayta tashkil etildi.

Bugungi kunda **iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish boshqarmasi** faoliyat yuritayotgan bo'lib, boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilar:

Qo'mitaga yuklatilgan funktsiya va vazifalarni hududiy boshqarmalar va qo'mitaga qarashli tashkilotlar bilan samarali bajarilishini ta'minlash;

raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor munosabatlarini shakllantirishga ko'maklashish;

shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashuvi va qo'shib olinishi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oldindan rozilik berish orqali bozor konsentratsiyasi ustidan nazoratni amalga oshirish;

davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek, ularning affillangan shaxslarini va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etishda (qayta tashkil etishda) monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini berish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish ustidan nazoratni amalga oshirish;

davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaensni joriy qilish va uni nazoratini amalga oshirish;

Boshqarma faoliyati sohasining me'yoriy-huquqiy va metodologik bazasini takomillashtirish.

Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

shaxs va shaxslar guruhi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga doir harakatlarni (bitimlarni) amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oldindan rozilik berish orqali bozor konsentratsiyasini nazorat qiladi;

tovar, moliya va raqamli bozorlarda bozor konsentratsiyasini baholaydi;

bozor konsentratsiyasini nazorat qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek, ularning affillangan shaxslarini va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etishda (qayta tashkil etishda, qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirishda, faoliyat turi o'zgarganda) monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini berish yuasidan tovar (ish, hizmatlar) bozorida o'rganishlar o'tkazish hamda ma'lumotlarni belgilangan tartibda komissiyaga taqdim qiladi;

davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy qiladi va uni nazoratini amalga oshiradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarining qo'shilishi, birlashishi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning aksiyalarini (ulushlari) olishga oldindan ruxsat berish hamda ushbu sohadagi qonunbuzilishlar to'g'risida arizalarni ko'rib chiqish bo'yicha Maxsus komissiyaning ishchi organi funksiyalarini bajaradi;

monopoliyaga qarshi kurash komplaensi samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini bajarish natijalarini baholaydi;

Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy va metodologik bazasini ishlab chiqadi va takomillashtiradi;

Boshqarma va bozor konsentratsiyasini nazorat qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Qo'mitaning boshqa tarkibiy bo'linmalari o'rtasida hamkorlikni tashkillashtiradi;

Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

Boshqarma o'z vakolati doirasida qonunchilik buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi;

Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qo'mitaning hududiy boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xususiylashtirish mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, uning rivoji uchun keng sharoitlar yaratish bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarori shubhasiz, davlat aktivlarini shaffof holda xususiylashtirish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Шадиева, Г. (2021). Инновацион иқтисодиёт шароитида тадбиркорликни ривожлантиришнинг айрим назарий жиҳатлари. Иқтисодиёт ва таълим, (4), 210-215.
2. SHADIYEVA, G. (2020). Social and economic concept of "Family economy", its development and conceptual ways to raise welfare. ЭКОНОМИКА, (9), 168-176.
3. Mardievna, S. G., & Boltaevna, S. F. (2021). The role of public-private partnerships in attracting investment projects in the transport sector. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(6).
4. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE "BRAINSTORMING" METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. Bulletin of Science and Education , (6-3 (109)), 56-61.
5. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In E3S Web of Conferences (Vol. 386). EDP Sciences.